



TA'LIM MUASSASASIDA O'QUVCHI-PEDAGOG MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASH HAMDA KORPORATIV ETIKANI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Raxmatullayeva N.B.

*Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
institutining mustaqil tadqiqotchisi*

Tayanch so'zlar: pedagog, o'quvchi, talaba, metod, prinsip, korporativ, tamoyil.

Ключевые слова: педагог, ученик, ученик, метод, принцип, корпоративный, принцип.

Key words: educator, student, student, method, principle, corporate, principle.

Pedagogik faoliyat shunday sohalar sirasiga kiradiki, u yerda muvaffaqiyat garovi ishtirokchilar munosabatining xarakter va mazmuniga bog'liq. O'qituvchining tarbiyaviy ta'sirini ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat belgilari: ba'zi o'qituvchilarda o'quvchilar "ochiq" pedagogik ta'sirga ijobiy munosabatda, tanbeh va tanqidni to'g'ri qabul qilishadi, o'qituvchining har qanday topshiriqlarni bajarishga tayyor, u bilan tez-tez maslahatlashib turishadi. Boshqalarida esa ziddiyatlarni kuzatamiz, tanbeh va tanqid o'quvchilarda norozilikni uyg'otadi, o'quvchi o'qituvchilardan norozi, sinf rahbariga va direktorlarga ota-onaga shikoyat qiladi, ammo shu yerda ham munosabatlar yaxshilikka o'zgarmaydi. Axir o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi iliq munosabat pedagogik jarayonda bo'ladi shaxs sifatlarini shakllantirish va o'qituvchining kasbiy oyoqqa turishi uchun zaruriyat hisoblanadi. Pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarni nafaqat istalajak sharoit sifatida qabul qilish zarur, balki pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi sifatida o'rganish zarur. Ammo bir paytning o'zida 30-40 o'quvchi bilan har ikki tomonni qoniqtiradigan ochiq munosabatni o'rnatish o'qituvchi uchun oson ish emas. Bola o'z ulg'ayish jarayoni davomida uning uchun ahamiyatli bo'lgan ko'plab muammolar tizimiga kirib boradi. Albatta, bu munosabatlar bolaning shaxs sifatida shakllanib borishini belgilab beradi, jumladan o'qituvchiga bo'lgan munosabat xarakteriga o'zgartirishlar kiritadi. Ular orasida eng muhimlari



oiladagi munosabatlar, o'qituvchilar bilan munosabatlar, tengdoshlar orasidagi, shaxslararo munosabatlar, norasmiy munosabatlar va boshqalar. Tug'ilgandan boshlab maktabga o'qishga kelguncha bo'lgan davrda oilada munosabatlar tizimi bola uchun ahamiyatli hisoblanib, kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega. Bu davrda otanonalar (kattalar) zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Mas'uliyat mazmuni shundan iboratki, ular bolaning ham jismoniy ham, ma'nan ulg'ayishi uchun mas'uldirlar. Oila munosabatlari asosini bolaning xatti-harakatlariga e'tibori tashkil etadi. Bugun maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab o'qituvchilarning o'quvchilarga munosabatida yuqoridagilarning aksini kuzatamiz: tabiiylikni qadrlamaydi; o'quvchilardagi mustaqillikni ko'rib ko'rmaslikka oladi; o'quvchilardagi betakrorlik o'qituvchi g'ashini keltiradi; o'quvchilar bilan «dildan» gaplashishi o'rnini shakllanib ulgurgan ta'sir ko'rsatish usullari egallagan (masalan talabchanlik) o'qituvchi bilan o'rnatilgan shaxsiy munosabat o'quvchilarda ularni tushunadigan kishini topganligi bilan qadrlidir, har bir o'quvchi o'qituvchi nigohida betakror shaxs sifatida g'avdalanadi. Bunday samimiy munosabatlar ziddiyatli holatlarni kamaytadi, qarshilik ko'rsatishni zaiflashtiradi. Bularning barchasi o'quvchini pedagogik jarayoning ishtirokchisiga aylantirishga ma'lum ma'noda xizmat qiladi. Agar munosabatlar o'zaro hurmat, tenglik va adolatlilik asosida qaror topgan bo'lsa, jarayonning har bir ishtirokchisi o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon yetishga va shaxs sifatida rivojlanishga erishadi» deb yozgan edi. psixolog olim T. P. Gavrilova (Psixologiya mejlichnosnix otnosheniy / ped. red. A.A. Bodaleva. M... 1982,-s. 132).

Ba'zi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar o'qituvchining o'ziga nisbatan qiyinchilik va ziddiyatni yuzaga keltirdi. Mana bu borada bir o'qituvchining fikri: «Sinfimda bir o'quvchi bor, men uni yaxshi bilaman-yomon bola emas, qat'iyatli, sofdil ammo bir o'quvchi bilan chiqisha olmaydi, munosabatlari yaxshi emas. Inson sifatida men uni tushunaman, ammo mening kasbiy o'rnim u bilan kelishishga yo'l qo'ymaydi. Uni maqullasam, hamkasbim qanaqa ahvolda qoladi. Bir paytning o'zida uni himoya qilgim va hamkasbimga yordamlashishni istayman». Hamkorlik pedagogikasining insonparvarlik g'oyasi mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'quvchi shaxsini hurmat qilish va uni qo'llab-quvvatlashga asoslanadi, nafaqat uning faoliyatidagi muvaffaqiyatlariga ishonch, balki foydalanilmagan imkoniyatlariga ishonch, uning shaxsiga e'tiborlikka asoslanishi zarur. Mavjud va orzudagi munosabatlar o'quvchilar bilan o'rnatiladigan uzoq muddatli aloqa jarayonida barcha bilan bir xil tarzda hamkorlik munosabatlarini o'rnatish murakkab. O'quvchilar turlicha. Biri ayni paytda e'tiborga muhtojlik, unga samimiylik va g'amxo'rlik ko'rsatish zarur, boshqasiga talabchanlik zarur,

qattiqo‘llik zarur. Bularning barchasi muhim va bir paytning o‘zida amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarning barchasini yagona munosabat tarkibiga umumlashtirish o‘zaro munosabatlarda rasmiyatchilikni yuzaga keltiradi.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta’kidlab o‘tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to‘g‘ri tanlangan, o‘qituvchining ma’naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi: birinchidan, muloqotda har bir o‘quvchiga alohida e’tibor va dilkashlik sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o‘qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi; ikkinchidan, har bir o‘quvchi bilan o‘zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga “kirib borish” gayo‘l ochadi; pedagogik muloqotda o‘qituvchining ma’naviy-axloqi normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo‘lib, ta’lim-tarbiya samaradoriigini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqish hissini va xotirjamligini ta’minlaydi.

Ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma’lum bir maqsad sari hamjihatlikkayo‘naltiruvchi kuchdir. Bu o‘rinda o‘qituvchi quyidagi vaziyatlarni e’tiborga olishni alohida ta’kidlash lozim:

- o‘qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so‘z ohangiga e’tibor, an’anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o‘zlashtirishi;
- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o‘quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;
- o‘z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so‘z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvomi vujudga keltirish;
- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi, o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalaning “ustoz-shogird” an’analariga xos boshlanishi va o‘zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektimng diqqatini o‘ziga jalb qilish;
- muloqot obyekti, ya’ni o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak?



Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilar qalbigayo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun, o'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odobxloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilatlar o'qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ulami boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir.

Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik etikaga amal qiladigan yosh o'qituvchi quyidagi xususiyatlair o'zida mujassamlashtirishi lozim: - mamlakatimizning ijtimoiy*siyosiy talablari va ehtiyojlariga bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqloq mafkurasiga sodiqlik vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o'quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;
- jamivatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;
- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;
- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotga yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarga aql-idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;
- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhi munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;
- dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasi muntazam oshirib borishi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.



2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhi tarbiyalaydi.
www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.

4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi. Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;
- muomala obyektini bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;
- o'quvchilarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- o'quvchilarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.
- o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish uslublari bilan qurollanganligi.

Adabiyotlar:

1. Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'll. T., 2017
2. Rashidov H.F., Musurmonov R. Dars intizomiga nisbatan salbiy munosabatlarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish yo'llari // Maktab va hayot - Toshkent, 2015. - № 1(109). - 2-5 betlar.
3. Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. T.: O'zbekiston, 1995.
4. Musurmonov R. Uzluksiz ta'lim tizimida intizomsiz o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash // Uzluksiz ta'lim - Toshkent, 2014. - № 2. - 30-35 betlar.

РЕЗЮМЕ

Maqolada pedagoglarning ta'lim muassasasida korporativ etika qoidalariga amal qilishi, o'quvchi talabalar bilan munosabatda hurmat, tenglik, adolat prinsiplariga rioya qilish mezonlari yoritilgan. Shuningdek, kasbdoshlari bilan munosabat asosida talabalarga o'rnak bo'lish hamda o'quvchilarga muomalada kasbiy kompetentlik tushunchasini ilgari surish tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещаются критерии соблюдения педагогами правил корпоративной этики в образовательном учреждении, соблюдения принципов уважения, равенства, справедливости в отношениях с обучающимися. Также анализируется подача примера студентам на основе взаимоотношений с коллегами и продвижение концепции профессиональной компетентности в обращении с учащимися.

SUMMARY

The article covers the criteria for educators to follow the rules of corporate ethics in an educational institution, to adhere to the principles of respect, equality, justice in the relationship with student students. It has also been analyzed to set an example for students on the basis of the relationship with their colleagues, as well as to advance the concept of professional competence in the treatment of students.